

UDC: 329(045)(575.1)

## KONSTITUTSIYAVIY MADANIYAT – QONUNCHILIK HUJJATLARI IJROSINI SAMARALI TA'MINLASH GAROVI

**Odilqoriyev Hojimurod To'xtamurodovich,**  
yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID: 0000-0003-1417-7854  
e-mail: domla5@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasida belgilangan islohotlarni amalga oshirishda Konstitutsiyaning roli, shuningdek, qonunchilik hujjatlarini qat'iy va og'ishmay qo'llashda davlat boshqaruvi organlarida ijro intizomini mustahkamlashda konstitutsiyaviy madaniyatning ahamiyati, mazmun-mohiyati nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Yurtimizda ijobiy konstitutsiyaviy madaniyat shakllanganligi, bir tomondan, Konstitutsiya normalarini qo'llovchi organlar, mansabdor shaxslar, ijtimoiy tuzilmalarning risoladagidek faoliyatida, ikkinchi tomondan, Konstitutsiya va qonunlarning muhofaza mexanizmlari, mutasaddi idoralar va shaxslarning ijrochilik intizomida namoyon bo'ladi. Samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish jarayonida har bir xodim o'z zimmasidagi vazifalarni vijdonan, sifatli va mas'uliyat bilan bajarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois zamonaviy boshqaruv uslublarini amaliyotga joriy etish, nazoratni amalga oshirish shakllarini takomillashtirish va belgilangan vazifalar bajarilishini ta'minlash borasida davlat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha qat'iy talablar va baholash mezonlari kuchaytirilmoqda. Konstitutsiyaga qat'iy rioya etgan holda, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimiz milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, barqarorlik muhiti va huquqiy tartibot, jamiyatda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya va qonun ustuvorligi, Konstitutsiyaning ma'naviy-ma'rifiy salohiyati, konstitutsiyaviy madaniyat, qonunchilik hujjatlari, ijro intizomi, ijroni nazorat qilish tizimi, ijrochilik faoliyatini baholash mezonlari.

## КОНСТИТУЦИОННАЯ КУЛЬТУРА – ГАРАНТ ЭФФЕКТИВНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИСПОЛНЕНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ АКТОВ

**Одилкориёв Ходжимурод Тухтамуродович,**  
доктор юридических наук, профессор

**Аннотация.** В статье анализируются роль Конституции в реализации реформ, предусмотренных в стратегии развития страны, а также значение конституционной культуры в четком неукоснительном исполнении законодательства, укреплении исполнительской дисциплины в органах государственного управления, раскрываются теоретические и практические аспекты сути и содержания конституционной культуры. Формирование позитивной конституционной культуры в нашей стране находит отражение, с одной стороны, в деятельности правоохранительных органов, должностных лиц, общественных структур, а также в механизмах защиты Конституции и законов, исполнительской дисциплине должностных и физических лиц. Важно, чтобы каждый работник

выполнял свои обязанности добросовестно, качественно и ответственно. Поэтому все более жесткие требования и критерии оценки предъявляются в процессе внедрения современных методов управления, совершенствования форм контроля и повышения персональной ответственности руководителей государственных органов в целях обеспечения выполнения поставленных задач. Широкомасштабные реформы, осуществляемые в строгом соответствии с Конституцией, станут важной основой укрепления национальной государственности и суверенитета, обеспечения обстановки стабильности и правопорядка, верховенства права, прав и свобод человека, межнационального согласия и религиозной терпимости.

**Ключевые слова:** верховенство Конституции и закона, духовно-просветительский потенциал Конституции, конституционная культура, законодательные акты, исполнительская дисциплина, система мониторинга исполнения, критерии оценки исполнительной деятельности.

## CONSTITUTIONAL CULTURE – GUARANTEE OF EFFECTIVE ENFORCEMENT OF LEGISLATIVE ACTS

**Odilgoriev Khojimurod Tukhtamurodovich,**  
Doctor of Law, Professor

**Abstract.** The article analyzes the role of the Constitution in the implementation of reforms provided for in the country's development strategy, as well as the importance of constitutional culture in a clear and strict implementation of legislation, in strengthening executive discipline in government bodies, reveals the theoretical and practical aspects of its essence and content. The formation of a positive constitutional culture in our country is reflected, on the one hand, in the activities of law enforcement agencies, officials, and social structures, as well as in the mechanisms of protection of the Constitution and laws, the executive discipline of officials and individuals. It is important that each employee performs his or her duties conscientiously, qualitatively and responsibly. Therefore, strict requirements and evaluation criteria are being strengthened to implement modern management methods, improve the forms of control and increase the personal responsibility of heads of government agencies to ensure the implementation of the assigned tasks. Our large-scale reforms, carried out in strict accordance with the Constitution, will be an important basis for strengthening national statehood and sovereignty, ensuring an environment of stability and law and order, the rule of law, human rights and freedoms, interethnic harmony and religious tolerance.

**Keywords:** the supremacy of the Constitution and the law, the spiritual and educational potential of the Constitution, constitutional culture, legislative acts, executive discipline, a system for monitoring implementation, criteria for evaluating executive activity.

### Kirish

Konstitutsiyamiz o'zbek xalqining demokratiya va adolat g'oyalariga sadoqati, insonparvarlik va bag'rikenglik tabiati, ma'naviy-madaniy yuksalish tamoyillariga e'tiqodini ifoda etadi. Uning xalqimizga xos erksevarlik, tinchlik-osoyishtalikka moyillik, saxovatpeshalik, ijtimoiy adolatga intilish, insonni qadrlash, o'zaro mehr-oqibat va hurmat kabi fazilatlar bilan yo'g'rilgan farahbaxsh qoidalari bugungi taraqqiyot jarayon-

lariga, asl bunyodkorlik islohotlariga alohida jo'shqinlik bag'ishlamoqda.

Mana, qariyb o'ttiz yil mobaynida Konstitutsiyamizda mustahkamlangan ilg'or umumbashariy va milliy g'oyalar, qadriyatlar, demokratik tamoyil va normalar xalqimiz ijtimoiy ongi, tabiati, ruhiyatiga singib, uni zamonaviy sivilizatsiya talablariga munosib "millat"ga aylantirdi, fuqarolarning dunyoqarashi, siyosiy-huquqiy ongi hamda madaniyati yuksalishiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "O'tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi, odamlarimizning dunyoqarashi butunlay o'zgargani, har bir yurtidoshimiz mamlakatimizning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgani Bosh qomusimizning hayotbaxsh qudrati va ulkan salohiyatidan dalolat beradi" [1, 8-b.]. Konstitutsiyamiz yaratib bergan ulkan huquqiy imkoniyatlar samarasi bo'lgan bunday yutuq va natijalar barchamizga, albatta, yuksak g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Mamlakatimiz Asosiy qonunining mazmuni chinakam milliy-madaniy ruh, ma'naviy-ma'rifiy salohiyat bilan sug'orilgandir. Unda o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida shakllantirilgan va sayqal toptirilgan madaniy qadriyatlari, axloqiy fazilatlari, tarixiy va milliy an'analari, sharqona donishmandligi va tafakkuri xazinasi durdonalari o'zining mujassam huquqiy ifodasini topgan. Jahonda mislsiz madaniyat, tarix, siyosat va fiqh yodgorliklari hisoblanish «Temur tuzuklari», Navoiy «Xamsa»si, «Boburnoma», «Zafarnoma», «Qobusnoma» va boshqa manbalarning mazmuni Konstitutsiya matniga singdirilganligi tahsinga loyiq va bu bilan faxrlanish joizdir [2].

Yangi O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyot strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda Konstitutsiyamizning teran ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy imkoniyatlari hamda salohiyatini safarbar etish, ishga solish alohida ahamiyatga molikdir.

### **Material va metodlar**

Ushbu maqola xorijiy keng tarqalgan usullarni konseptual, nazariy, konstitutsiyaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan. Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Konstitutsiyaning amal qilish dialektikasi ni tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning normalarini aksiologik (qadriyat, madaniy-

ma'naviy ne'mat tarzida) usullar vositasida talqin etish va baholash Asosiy qonunimizning boy normativ mazmuni, mantiqiy teran ichki salohiyatini ochish hamda hayotga samarali (natijali) joriy qilishda nihoyatda keng imkoniyatlar beradi.

### **Tadqiqot natijalari**

Ma'lumki, jamiyatning ma'naviy-axloqiy qiyofasi unda qaror topgan qadriyatlar tizimi va madaniy-ma'rifiy mezonlar majmuyi bilan tavsiflanadi. "Turli jamiyatlardagi turfa qonunlar xilma-xil madaniyatlarga xos teran ma'rifiy xususiyatlarni ifoda etadi va ular, odatda, huquq vositasida mustahkamlanadi" [3, 34-b.]. Konstitutsiya bunday madaniy-axloqiy andozalar, namunali xulq-atvor modelini nafaqat mustahkamlaydi, balki ularni kafolatli muhofazalaydi, boyitadi, jamiyat a'zolarining yurish-turishi va fe'l-atvoriga singdiradi [4, 50-b.]. Shubhasiz, tan olish joizki, Konstitutsiya sharofati bilan ijtimoiy ongimiz, huquqiy tafakkurimizga zamonaviy demokratik qadriyatlar, prinsip va g'oyalar jo bo'lmoqda. Bular, eng avvalo, suveren davlatchilik va odil demokratik jamiyat qurish g'oyalaridir. Shuningdek, "xalq hokimiyatchiligi", "qonun ustuvorligi", "hokimiyat vakolatlari taqsimlanishi", "siyosiy plyuralizm", "ko'ppartiyaviylik", "inson huquqlari daxlsizligi va ustuvor ta'minlanishi", "aybsizlik prezumpsiyasi", "xususiy mulk va uning qonun bilan muhofazalanganligi" kabi prinsiplar siyosiy-huquqiy tafakkurimiz ma'naviy mulkiga aylanib bormoqda [4, 51-b.].

Konstitutsiyaviy normalar har bir shaxsning o'zligini anglashi, o'z iqtidori va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi, pirovardida faol individ tarzida maydonga chiqishi hamda ijtimoiylashuvi uchun ko'maklashadi. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar shaxsning o'z salohiyati va iste'dodini namoyon etishiga sharoit, ya'ni mo'tadil normativ-huquqiy muhit yaratadi. Aslida, Asosiy qonunimiz normalari o'z mohiyatiga ko'ra, milliy madaniyatimizning ijtimoiy-normativ shaklidir. Ular-ga qat'iy rioya etish esa nafaqat mustahkam

huquqiy tartibot, balki yuksak ma'rifiylik va madaniyatni ifoda etadi [5, 82-b.].

Davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta'minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlat hamda adolatli fuqarolik jamiyatining bosh mezonini hisoblanadi. Mazkur talab konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan muhim prinsiplardan (15- va 16-moddalar) biridir [2]. Ushbu prinsipni sobitqadamlik bilan hayotga joriy etib, jamiyat a'zolari ijtimoiy ongida "hazrati qonun" degan e'tiqod, ichki tuyg'u va tushuncha qaror toptirilsagina, amalda chinakam qonun hukmronligiga erishish mumkin. Shu bilan birga, "Konstitutsiya hamda qonun talablariga og'ishmay amal qilish, – deydi Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev, – ma'naviy saviyamiz, madaniyatimizning asosiy mezoniga aylanishi shart" [1, 33-b.].

Darhaqiqat, Konstitutsiyaga qat'iy rioya etgan holda, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimiz milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, barqarorlik muhiti va huquqiy tartibot, jamiyatda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ladi. Ayniqsa, joriy 2022-yilda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Asosiy qonunimizga inson qadrini ulug'lovchi yangi qoidalar, "inson-jamiyat-davlat" tarzidagi ijtimoiy-konstitutsiyaviy qadriyatlar tizimini yanada mukammal aks ettiruvchi, davlatning fuqarolar huquq hamda manfaatlarini ta'minlashga oid kafolatlarini jiddiy kuchaytiruvchi muhim normalarning kiritilganligi e'tiborga molikdir. Ushbu konstitutsiyaviy yangiliklar xalqimizning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish, fuqarolarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, tashabbuskorligini rag'batlantirish borasida beqiyos huquqiy kafolatlar yaratadi [6, 9-b.].

Jamiyatimizda yuksak konstitutsiyaviy tafakkur va madaniyatning shakllantirili-

shi, uning turmushimizning uzviy qismiga aylantirilishi ijtimoiy adolat hamda qonun ustuvorligini ta'minlashga ishonchli zamin yaratishi tabiiy. Shu munosabat bois "konstitutsiyaviy madaniyat"ni qaror toptirish, izchil yuksaltirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi.

So'nggi yillarda milliy huquqshunosligimizda "konstitutsiyaviy madaniyat" voqeligini ilmiy va amaliy jihatdan talqin etishga e'tibor sezilarli darajada kuchaydi. Xorijiy adabiyotlarda ham bu mavzuga oid ishlanmalar paydo bo'lmoqda. Jumladan, prof. G.G. Arutyunyan "konstitutsiyaviy madaniyat" – jamiyatda demokratik huquqiy xulq-atvor qoidalarini o'rnatish hamda kafolatlash jarayonida tarixan shakllangan, ajdodlar va butun insoniyat tajribasi bilan boyitilgan, shu jamiyat hayotining asosini tashkil etuvchi muayyan e'tiqodlar, tasavvurlar, huquqiy ongning qadriyatli tizimidir, – deb ta'riflaydi [7, 24-42-b.].

Rossiyalik olim V.A. Kryajkovning fikriga ko'ra, "konstitutsiyaviy madaniyat" jamiyat huquqiy hayotining muayyan sifat holati bo'lib, unda konstitutsiyaviy qadriyatlarini o'zlashtirish va ulardan foydalanishning me'yori aks etadi. Mazkur tushuncha Konstitutsiyaning rivojlanish darajasida, qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, huquqiy ongning konstitutsiyalashuvi holatida, shuningdek, inson va fuqarolar asosiy huquq va erkinliklari kafolatlanishida namoyon bo'ladi [8, 38-b.].

Konstitutsiyaviy madaniyatning holati va tavsifi tahlili asosida uning quyidagi belgi va xususiyatlarini e'tirof etish mumkin:

birinchidan, konstitutsiyaviy madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida uning boshqa turlari, ya'ni iqtisodiy, siyosiy, diniy, ma'naviy va boshqa ko'rinishlari bilan uzviy aloqador;

ikkinchidan, konstitutsiyaviy madaniyatni shakllantirmay turib, mamlakatda mustahkam konstitutsiyaviy tuzumni qaror toptirish mumkin emas. Bu davlat va jamiyat hayoti-



ning Konstitutsiya asosida qat'iy tashkil etilganligini nazarda tutadi;

uchinchidan, inson huquqlarining kafolatlanganlik darajasi konstitutsiyaviy madaniyat holatining asosiy ko'rsatkichidir. Inson va fuqaro huquq hamda erkinliklariga ustuvorlik berilishi konstitutsiyaviy madaniyatning muhim belgisi bo'lib, shaxsning jamiyatdagi mavqeyi, o'z huquqiy martabasini anglash, e'tirof etilishiga ko'maklashadi;

to'rtinchidan, konstitutsiyaviy madaniyat demokratik huquqiy davlat barpo etilishining muhim sharti bo'lib, u, avvalo, jamiyat rivojlanishining zamonaviy standartlarini qaror toptirish, aholini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, fuqarolarning davlat ishlari-da faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi;

beshinchidan, konstitutsiyaviy madaniyatda nafaqat huquqiy normativ va ma'naviy, balki siyosiy-me'yoriy jihatlar, yuridik faoliyatning ijobiy natijalari, shuningdek, odamlar va ular jamoalari uchun ijtimoiy-huquqiy faoliyat namunalari ifodalanadi.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyat jamiyat umumiy huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi, uning alohida shakli tarzida maydonga chiqadi. Ayni vaqtda jamiyatning huquqiy madaniyati shu jamiyatda harakatda bo'lgan qonunlar, ayniqsa, Asosiy qonun – Konstitutsiya bilan bevosita aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Davlatimiz rahbari huquqiy madaniyat mavzusiga alohida e'tibor qaratib, 2019-yil 9-yanvardagi farmoni bilan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi"ni tasdiqlaganligi ham fikrimizning jonli dalilidir.

T.V. Voronovichning ta'kidlashicha, konstitutsiyaviy madaniyat – Konstitutsiyaga moslik, konstitutsiyaviy qadriyatlar, insonning huquq va erkinliklari haqidagi bilimlarning oddiygina yig'indisi emas, balki bu bilimlarga munosabatdir: ya'ni ular hayot va faoliyatning regulyatoriga (tartibga soluvchi omiliga) aylandimi yoki yo'q? Mana shu bilimlar, ma'naviy boylikka ijo-

biy munosabat shakllansagina, konstitutsiyaviy madaniyat mavjudligi haqida gapirish mumkin. Zero, konstitutsiyaviy madaniyat inson va jamiyat hayotida ijodiy va tartibga soluvchi rol o'ynaydi [10, 103-b.]. Konstitutsiyaviy madaniyatning asosini yuksak rivoj topgan konstitutsiyaviy-huquqiy ong tashkil etadi. Shu bilan birga, jamiyat a'zolari, davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolik jamiyati tuzilmalarida muayyan konstitutsiyaviy tafakkur, konstitutsiyaviy dunyoqarash qaror topishi lozim [11, 38-b.].

Yurtimizda ijobiy konstitutsiyaviy madaniyat shakllanganligi, bir tomondan, Konstitutsiya normalarini qo'llovchi organlar, mansabdor shaxslar, ijtimoiy tuzilmalarning risoladagidek faoliyatida, ikkinchi tomondan, Konstitutsiya va qonunlarning muhofaza mexanizmlari, mutasaddi idoralar va shaxslarning ijrochilik intizomida namoyon bo'ladi.

Mamlakatdagi shiddatli va keng ko'lamli islohotlar jarayonida tabiiy ravishda qonunchilik hujjatlari salmog'i ortishi kuzatilmoqda. So'nggi besh yilda 300 dan ortiq qonunlar, Prezidentning 535 ta farmoni va 1446 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 3102 ta qarori qabul qilindi. Ularning muayyan qismi belgilangan muddatlarda ijro etilmay yoki lozim sifat darajasida bajarilmay qolayotganligi sir emas. Qonunchilik hujjatlarining ijrosini qat'iy ta'minlash esa davlat boshqaruvi samarasiga ta'sir etmay qolmaydi. "Ish boshi – intizom" deganlaridek, intizom bor joyda samara bor, natija bor.

Qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari ijrosini tashkil etish va samarali monitoring tizimini yaratish, belgilangan marralarga erishish bo'yicha barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish maqsadida 2021-yilning 10-fevralida O'zbekiston Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonda qonunchilik hujjatlari va Prezident topshiriqlarining so'zsiz, o'z vaqtida va samarali ijro etilishi uchun mutasaddilarning shaxsiy javobgarligi belgilab berildi, bunda ijro intizomini mustahkamlashning quyidagi beshta ustuvor vazifalariga e'tibor qaratildi:

birinchisi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash bo'yicha qat'iy nazoratni tashkil etish, tegishli ekspertizalarni o'tkazish, shuningdek, vakolatli organlar bilan o'z vaqtida kelishish;

ikkinchisi, qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarini bevosita ijrochilarga tezkor yetkazish, jumladan, keng jamoatchilik va aholiga erishilayotgan natijalar hamda belgilangan maqsadlarni tushuntirish bo'yicha kompleks choralar ko'rish;

uchinchisi, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini shaxsan nazorat qilish, joylardagi ishlarning haqiqiy holatini doimiy tanqidiy o'rganib, bunda zarur kuch va mablag'larni safarbar etish;

to'rtinchisi, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning mohiyati va ahamiyati hamda ularni amalga oshirish yuzasidan qabul qilinayotgan chora-tadbirlarni tushuntirish maqsadida ommaviy axborot vositalarida shaxsiy fikr-mulohazalarni bildirish, jamoat tashkilotlari va mahallalarda uchrashuvlar o'tkazish, shuningdek, hokimlarning xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida hisobot berish amaliyotini joriy etish;

beshinchisi, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar o'z vaqtida, to'liq va natijali ijro etilishi shaxsan tanqidiy tahlil qilinishini ta'minlash, oldinga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish va mo'ljallangan maqsadlarga erishish. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha, shuningdek, hududlarni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarini talab etadigan muammoli masalalar bo'yicha har tomonlama asoslangan takliflar ishlab chiqish va kiritish.

Samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish jarayonida har bir xodim o'z zimmasidagi

vazifalarni vijdonan, sifatli va mas'uliyat bilan bajarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois zamonaviy boshqaruv uslublari amaliyotga joriy etish, nazoratni amalga oshirish shakllarini takomillashtirish va belgilangan vazifalar bajarilishini ta'minlash borasida davlat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha qat'iy talablar va baholash mezonlari kuchaytirilmoqda.

Ijro intizomi tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish va yangi mexanizmlarni joriy etish bo'yicha ishlarni tashkil etishda Prezidentning yuqorida qayd etilgan Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asos bo'ldi.

Quyidagi mexanizmlar mazkur tizimning asosini tashkil qiladi:

birinchidan, kelib tushayotgan barcha topshiriq va murojaatlar ularning ijrochilarga yetkazilishidan tortib ijro etilishiga qadar doimiy nazoratni ta'minlash maqsadida to'liq elektron formatga o'tkazildi;

ikkinchidan, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning barvaqt ijrosini ta'minlashning quyidagi bosqichlardan iborat aniq mexanizmi joriy etildi:

- nazorat rejalari ishlab chiqish;
- ijrochilarning topshiriqlar ustida bir vaqtning o'zida ishlashini muvofiqlashtirish;
- markaziy apparat va hududiy bo'linmalarda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni ijro etish jarayonining kunlik monitoringini amalga oshirish;
- boshqa davlat organlari bilan ma'lumotlar va axborotlar tezkor almashuvini yo'lga qo'yish.

Umuman olganda, yangi ijro intizomi tizimi joriy qilinishining tezkor samarasi barcha vazirlik, davlat qo'mitalari va hokimliklar faoliyatida bevosita namoyon bo'lmoqda. Bunga erishishning asosiy omillaridan biri ijro intizomini mustahkamlashda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga asoslangan yagona va

uzluksiz “texnologik zanjir”ning yaratilishi bo'ldi:

- qonunchilik hujjatlari loyihalarini har tomonlama puxta hamda professional darajada tayyorlash;

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali va rejali tashkil qilish, ularning bajarilish holatini maqsadli o'rganish va aniqlangan kamchiliklar bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi yuzasidan aniq mexanizmlar, muddatlar va mas'ullarni belgilashni nazarda tutuvchi “yo'l xaritalari”ni (harakat rejalarini) ishlab chiqish;

- tashkiliy va ijro faoliyati natijadorligi uchun barcha davlat boshqaruv organlari rahbariyati va xodimlari shaxsiy mas'uliyatini belgilash;

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlamagan rahbarlar va xodimlarga nisbatan qat'iy intizomiy choralar qo'llash.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosini nazorat qilishning yangi tizimi joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha davlat boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi organlar “ijro.gov.uz” ijro intizomini monitoring qiluvchi idoralararo yagona elektron tizimiga ulangan.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash va nazorat qilish bo'yicha o'rnatilgan yangi o'zaro hamkorlik tizimiga muvofiq, davlat boshqaruvi organlari o'z ishini besh bosqichda amalga oshiradi:

birinchi bosqichda – qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning elektron nusxalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan “ijro.gov.uz” tizimi orqali Adliya vazirligiga yuboriladi;

ikkinchi bosqichda – Adliya vazirligi “ijro.gov.uz” tizimida ijro muddatlari va mas'ul shaxslarni qabul qilgan hujjatlariga muvofiq belgilaydi;

uchinchi bosqichda – ushbu vazifalarning o'z vaqtida va samarali ijrosini ta'minlash maqsadida mas'ul ijrochilar har bir vazifani amalga oshirishning aniq mexanizmlarini belgilab, “Yo'l xarita”larini tayyorlaydi, davlat organlari rahbariyatiga tasdiqlatib, amaliyotga joriy qiladi;

to'rtinchi bosqichda – tegishli hujjatga muvofiq ijrosi ta'minlangan topshiriq natijalari mas'ul ijrochilar tomonidan “ijro.gov.uz” tizimiga kiritiladi. Adliya vazirligi natijalarni ko'rib chiqadi, ijro natijalari qoniqsiz bo'lganda, ular qayta ishlashga yuboriladi. Belgilangan vazifalar sifatli bajarilsa, ijro holati “ijro.gov.uz” tizimida tasdiqlanadi;

beshinchi bosqichda – Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasi topshiriqlar ijro etilishi darajasini ko'rib chiqadi va amalga oshirilgan ishlar natijalarini tasdiqlash to'g'risida tegishli qaror qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5189-sonli “Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish to'g'risida”gi qarorida sifat jihatidan yangi bosqichda davlat boshqaruvi organlari rahbarlari o'rinbosarlarining shaxsiy javobgarligi masalalari belgilandi va ularning faoliyati samaradorligini baholashning yangi tizimi joriy etildi. Ushbu qarorga ko'ra, vazirlikda vazir o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlarini xalqaro usul va tamoyillar – KRI (Key Performance Indicator – asosiy ishlash ko'rsatkichi) asosida bajarishni tizimli nazorat qilish yo'lga qo'yildi.

### **Xulosalar**

Shunday qilib, barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida konstitutsiyaviy qonuniylik, qat'iy ijrochilik intizomini sobitqadamlik bilan ta'minlash, jamiyat a'zolarini konstitutsiyaviylik ruhida tarbiyalash, ularni

ijobiy-huquqiy xulq-atvor va konstitutsiyaviy madaniyat sohiblariga aylantirish nafaqat Konstitutsiyaga cheksiz hurmatni shakllantiradi, balki ilg'or ijtimoiy taraqqiyotning garovi bo'lib xizmat qiladi. Davlat hokimiyati

tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlar konstitutsiyaviy bo'lishi konstitutsiyaviy qonuniylik qaror topishini ta'minlaydi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy madaniyatini shakllantiradi.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir [The Constitution is a solid foundation of our free and prosperous life and further development of our country]. President Shavkat Mirziyoyev's speech at the ceremony dedicated to the 25th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. 2017, December 7. Available at: [https://constitution.uz/uz/pages/prezident\\_maruzasi\\_25yil/](https://constitution.uz/uz/pages/prezident_maruzasi_25yil/).
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <http://old.lex.uz/docs/20596>.
3. Murashko L. Konstitutsionalizatsiya kak sovremennaya tendentsiya pravoobrazovatel'nykh protsessov [Constitutionalization as a modern trend of law-forming processes]. Constitutional Justice. *Bulletin of the Conference of the Organs of Constitutional Control of New Democracies*, Yerevan, 2011, no. 4, p. 54.
4. Odilqoriyev H.T. Konstitutsiyaviy qadriyatlar – jamiyatda konstitutsiyaviy madaniyatni qaror tortirish mezonlari [Constitutional values are criteria for determining constitutional culture in society]. Democratization of state power and the legal system. A collection of scientific articles. Tashkent, 2015.
5. Odilqoriyev H.T. O'zbekiston davlati va jamiyati innovatsion rivojlanishining huquqiy jihatlari [Legal aspects of innovative development of the state and society of Uzbekistan]. Tashkent, Innovatsion rivojlanish Publ., 2019.
6. Odilqoriyev H.T. Davlat hokimiyatining mohiyati va huquqiy qiyofasi tavsifi [Description of the nature and legal form of state power]. Democratization of state power and the legal system. A collection of scientific articles. Tashkent, 2015.
7. Arutyunyan G.G. Rol' konstitutsionnoy diagnostiki v obespechenii ustoychivosti obshchestvennogo razvitiya [The role of constitutional diagnostics in ensuring the sustainability of social development]. *Constitutional Justice Bulletin of the Conference of Constitutional Control Bodies of Young Democracies*, 2010, no. 4.
8. Kryajkov V.A. Konstitutsionnaya kul'tura v zerkale pravosudiya Konstitutsionnogo suda RF [Constitutional culture in the mirror of justice of the Constitutional Court of the Russian Federation]. *Konstitutsionnoye pravosudiye – Constitutional Justice*, 2008, no. 3.
9. Voronovich T.V. Konstitutsionnaya kul'tura: rol' konstitutsionnogo pravosudiya v yeyo formirovanii [Constitutional culture: the role of constitutional justice in its formation]. *Vestnik Konstitutsionnogo suda Respubliki Belarus – Bulletin of the Constitutional Court of the Republic of Belarus*, 2011, no. 2.
10. Islamov Z.M. Konstitutsiya va huquq ustunligi prinsipi [Constitution and the principle of supremacy of law]. Tashkent, 2013.
11. Abduqodirov R.V. Shaxsiy mas'uliyat, mustahkam intizom va tashabbuskorlik – samarali mehnat poydevori [Personal responsibility, strong discipline and initiative are the foundations of effective work]. *Yangi O'zbekiston – New Uzbekistan*, 2021, no. 44. Available at: <https://yuz.uz/news/shaxsiy-masuliyat-mustahkam-intizom-va-tashabbuskorlik--samarali-mehnat-poydevori/>.



12. Shermatov Sh. Ijro intizomi – joylardagi islohotlar samaradorligining asosiy omili [Implementation discipline is a key factor in the effectiveness of local reforms]. *Yangi O'zbekiston – New Uzbekistan*, 2021. Available at: <https://yuz.uz/file/newspaper/04ca0de1ea0f55195ba8a7a3020ad810.pdf/>.

13. Sharaxmetov Sh. Shaxsiy mas'uliyat va mustahkam ijro intizomi — davlat organlari samarali faoliyatining muhim omili [Personal responsibility and strong executive discipline are important factor in the effective operation of state bodies]. *Yangi O'zbekiston – New Uzbekistan*, 2021, no. 193. Available at: <https://antimon.gov.uz/uzb/shahsij-masuliyat-va-mustahkam-ijro-intizomi-davlat-organlari-samarali-faoliyatining-muhim-omili/>.

14. Islomov Z.M. Konstitutsiya va huquq ustunligi [Constitution and rule of law]. Tashkent, 2013.

15. Mazzone J. The Creation of a Constitutional Culture. *Tulsa Law Review*, 2005, no. 40.

16. West R. Constitutional Culture or Ordinary Politics: A Reply to Reva Siegel. *Georgetown Law Faculty Publications and Other Works*, 2006, p. 266. Available at: <https://scholarship.law.georgetown.edu/facpub/266/>.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

4 / 2022

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
y.f.d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, Y. Yarmolik,

F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 30.08.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 16,50 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 97.

TDYU tipografiyasida chop etildi.